

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA TO'LOV-KONTRAKT SHAKLI MABLAG'LARI HISOBINING XORIY TAJRIBALARI

Abdujalilova Dilnoz Abdusattorovna,

TMI tayanch doktoranti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: dilnoz.abdujalilova.84@mail.ru

ORCID: 0009-0003-5169-4233

FOREIGN EXPERIMENTS OF THE ACCOUNT OF FUNDS OF THE PAYMENT- CONTRACT FORM IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Abdujalilova Dilnoz Abdusattorovna,

PhD student, Tashkent Institute of Finance

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: dilnoz.abdujalilova.84@mail.ru

ORCID: 0009-0003-5169-4233

JEL Classification: M1,M4,M49

Annotatsiya: Mamlakatimizda davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berilishi natijasida ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun moliyalashtirish manbalarini kengaytirish hamda ularning hisobini yuritish tizimini takomillashtirishni taqozo etadi. Bunday sharoitda, asosiy e'tibor oliy ta'lim muassasalarining to'lov-kontrakt shakli mablag'lari shakllantirish, budjetdan tashqari daromadlar har bir tushum turlari va xarajatlar hisobini yuritish tartibini shakllantirish va rivojlantirish zaruriyati yuzaga keladi. Oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, davlat oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash masalalarini mustaqil hal etish ya'ni moliyaviy mustaqillik berish, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga mablag'larni jalb etish imkoniyatini kengaytirish hamda oliy ta'lim muassasalari o'rtasida raqobat muhitini rivojlanishiga olib keladi. O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasidagi davlat siyosatining mazmuni esa, jahon tajribasini o'rganish asosida ta'lim taraqqiyotini yuqori

bosqichlar eng ilg'or xorijiy mamlakatlar ta'limi darajasiga ko'tarishdir.

Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida budjetdan tashqari manbalar asosan to'lov-kontrakt shakli mablag'lari bo'yicha hisob tizimining yurutilishi, daromad va xarajatlarni tan olinishi tartibi hamda pirivard natijada ularning moliyaviy natijasini to'g'ri hisoblanishida asosan qaysi jihatlarga e'tibor qaratilish lozimligi yoritilgan ya'ni moliyaviy mustaqillik berilgan oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda yuqori samaradorlikga erishish ko'zda tutilgan. Maqolani yozishdan qo'yilgan maqsadga erishish uchun, bir qator huquqiy, ilmiy statistik va amaliy manbaalar o'rganib chiqildi va tahlillar o'tkazildi. Xorijiy davlatlardan evropa mamlakati, xususan Latviya tajribasi taqqoslanib, tahlil qilindi. Natijada, yevropa oliy ta'lim muassasi bo'lgan Latviya o'qitish tizimida to'lov-kontrakt shakli mablag'lari hisobini asosiy tamoyillarga tayangan holda shakllantirilayotgan biznes reja va uning ijrosi, to'lov-kontrakt shakli mablag'lari hisobining mezonlarini ishlab chiqish, biznes rejada belgilangan moliyaviy natijalarga

erishish uchun daromadlar va xarajatlar ko'rsatkichlarini to'g'ri shakllantirish bo'yicha xulosalar hamda ilmiy takliflar shakllantirilgan.

Abstract: As a result of the granting of financial independence to state institutions of higher education in our country, it is necessary to expand the sources of financing and improve the system of their accounting in order to ensure their financial stability. In such conditions, the main emphasis arises on the formation of funds of the payment-contract form of higher educational institutions, the need to form and develop the procedure for carrying out the accounting of each type of income and expenses of non-budgetary income. Improving the effectiveness of the reforms carried out in the higher education system, ensuring the financial stability of State Higher Educational Institutions, independently solving the issues of strengthening the material and technical base, providing financial independence, expanding the possibility of attracting funds to research activities and developing a competitive environment between higher educational institutions. The content of the state policy in the field of education in the Republic of Uzbekistan, on the basis of the study of the world experience, is to increase the development of education to the level of education of the most advanced foreign countries of the upper stages.

In this article, non-budgetary resources in higher education institutions are mainly covered by the procedure for the implementation of the accounting system for funds of the form of a payment contract, the recognition of income and expenses, as well as what aspects should be considered mainly when calculating their financial result in pirivard that is, it is envisaged to achieve high efficiency in ensuring the financial stability In order to achieve the goal of

writing the article, a number of legal, scientific statistical and practical sources were studied and analyzed. From foreign countries, the experience of a European country, in particular Latvia, was compared and analyzed. As a result, in the Latvian training system, a European institution of Higher Education, conclusions and scientific proposals were formed on the formation of a business plan and its implementation, the development of criteria for accounting of funds of the form of a payment contract, the correct formation of indicators of income and expenses for achieving financial results established in the business plan.

Kalit so'zlar: biznes reja, bolloniya jarayoni, buxgalteriya hisobi, davlat budjeti mablag'lari, moliyaviy hisobot, to'lov-kontrakt shakli mablag'lari.

Keywords: business plan, bollogna process, accounting, funds of the state budget, financial statements, funds of the payment and contract form.

Kirish. Mamlakatimizda ta'lim tizimini jahon andozalari talabiga olib chiqish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshilirmoqda. Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, davlat talablari asosida ta'lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir. Prezident Farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da "yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash, ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta'lim olishini ta'minlash, hududlarda inklyuziv ta'lim rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratishda kelgusi 5 yillikda amalga oshirilishi lozim bo'lgan bir qator vazifalar o'z aksini topdi. Xususan, maktab bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini 2030 yilda 50 foizga

yetkazish, shuni hisobga olib, oliy o'quv yurtlariga talabalar qabul qilish davlat grantlari 2 barobar ko'paytirish; oliy ta'limning qamrov darajasini bosqichma-bosqich oshirish, tizimda sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, o'quv yuklamlarini maqbullashtirish, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish; oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini ta'minlash, professor-o'qituvchilarning maoshini oshirilishi oliy ta'lim islohotlarining dastlabki natijalaridir" [1].

Bundan tashqari "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan "oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, davlat oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash masalalarini mustaqil hal etish, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga mablag'larni jalb etish imkoniyatini kengaytirish hamda oliy ta'lim muassasalari o'rtasida raqobat muhitini rivojlantirish maqsadida bir qator vakolatlar berildi" [2]. Jumladan, ta'lim xizmatlari bozoridagi talabni inobatga olgan holda to'lov-kontrakt asosida o'qitish qiymatini mustaqil belgilash oliy ta'lim muassasasini moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda esa, xorijiy yetuk oliy ta'lim muassasalarining tajribalarini o'rganish, tahlil qilgan holda davlatimiz oliy ta'lim tizimiga mos keladigan jihatlarini joriy etish moliyaviy mustaqillik berilgan oliy ta'lim muassasalarining dolzarb masalalaridan biridir. Moliyaviy mustaqillik berilgan oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy barqarorlikni ushlab turish, to'lov-kontrakt mablag'larini samarali boshqarish hamda maqsadli sarflanishini ta'minlashda hisobni to'g'ri yuritish va nazoratini amalga oshirishda xozirgi kunga kelib bir qator muammoli holatlar kuzatilmoqda. Xalqaro

tajribaga asosan oliy ta'lim muassasalarining faoliyatini o'rganish asosida o'quv yili bilan bog'liq hisob jarayoni hamda hisobotlarni tuzib taqdim etish tartibini takomillashtirish zaruriyati mavjud.

Material va metod. Oliy ta'lim muassasalarini samarali moliyalashtirish budjetdan tashqari mablag'lar hisobi shu jumladan to'lov-kontrakt shakli mablag'lari hisobini tashkil qilish, shuningdek budjetdan tashqari mablag'lar jalb etishni kengaytirish va ulardan samarali foydalanish masalalari xorijiy va mahaliy iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, ilmiy asarlar, risolalarda o'z aksini topgan.

Xorijiy iqtisodchi olimlardan N.N.Parasotskaya o'z ishlanmalarida oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy masalalarini yoritilishiga katta ahamiyat qaratgan

«Oliy ta'lim muassasalarida ichki nazoratning optimal tizimini yaratish muassasa faoliyatining barcha sohalarida mablag'larning sarflanishi to'g'risidagi to'liq ma'lumotlardan shakllantiriladi» [11]. A.I.Zotova iqtisod fanlari nomzodi Rossiya oliy ta'lim muassasalari buxgalteriya hisobini o'rganib ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan. «Xususi universitetlarning hisob yuritilishida eng katta ulush ish haqi, o'quv, ilmiy va iqtisodiy maqsadlar, asbob-uskunalar, inventar va materiallarni sotib olish xarajatlariga to'g'ri keladi» [10].

N.R.Kelchevskaya oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy resurslarini bozor sharoitida raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan ilmiy ishlar olib borgan. «Doimiy o'zgarib, rivojlanib borayotgan iqtisodiy sharoitda oliy ta'lim muassasalarining barqarorligini ta'minlash uchun ta'lim muassasalari ta'lim xizmatlari bozorining holatini doimiy ravishda kuzatib borish, ushbu bozordagi mavqeyini baholash zarur. Nodavlat oliy ta'lim muassasalarining paydo bo'lishi bu muammoni yanada

dolzarblashtirmoqda. Ta'lim biznesga aylanib, bu esa oliy ta'lim tizimida kuchli raqobaga olib keladi» [12].

Simon Marginson yevropa oliy ta'lim tizimini samaradorligini oshirish qaratilgan ilmiy ishlar olib borgan «Oliy ta'lim tizimi mamlakat modernizatsiya jarayonining dinamik qismidir» [8]. Rita Kasa yevropa davlatlari asosan Latviya oliy ta'lim tizimi moliyaviy faoliyati, inklyuziv ta'lim jarayonlariga bag'ishlangan ilmiy ishlar olib borgan «Xorijiy davlatlarda xususiy oliy ta'lim tizimini moliyalashtirish turli jamg'armalar, oilaviy resurslar, kreditlar va shaxsiy daromadlar hisobidan amalga oshiriladi» [7].

Respublikamizning yetakchi iqtisodchi olimlaridan S.U.Mehmonov, A.A.Ostonokulov, A.B.Sherov, J.Yu.Qurbonovlar o'z ishlanmalarida oliy ta'lim tizimini moliyalashtirishni takomillashtirish yo'llari hususan to'lov-kontrakt shaklidan tushgan tushumlar hisobi yuzasidan tadqiqot ishlari olib borishgan.

Xususan, A.A.Ostonokulovning budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari hisobi va hisoboti metodologiyasini takomillashtirish mavzusida yozilgan ilmiy ishida «budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag'lari shakllantirishning zarurligi va ahamiyati, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari hisobining nazariy asoslari»[3], shuningdek, «ta'lim va tibbiyot muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'lar hisobi metodologiyasini takomillashtirish»[4] tadqiq etilgan. J.Yu.Qurbonov "Oliy ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushgan tushumlar hisobi va uni takomillashtirish masalalari" nomli maqolasida «oliy ta'lim muassasasiga to'lov-kontrakt mablag'lari bo'yicha hisoblangan daromadlar debitor va kreditor ma'lumotlar

yuritishda inson omilini cheklash masalalari» [6] taklif etilgan.

Yuqoridagi tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida bevosita oliy ta'lim muassasalarida to'lov-kontrakt shakli mablag'lari hisobini takomillashtirishda xorij tajribalarining o'rganishni talab etadi. Shundan kelib chiqib xorijiy olimlarning tadqiqot yo'nalishlari, oliy ta'lim muassasalarining moliy faoliyati o'ziga xosligi va olib borilgan izlanishlari natijalarini O'zbekiston oliy ta'lim tizimi moliyaviy faoliyati ayniqsa moliyaviy mustaqillik berilgan oliy ta'lim muassasalariga xos jihatlarni o'rganib tadqiq qilish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot ishlarini olib borish jarayonida oliy ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shakli mablag'larining hisobini yuritilishi, xorijiy iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlarida oliy ta'lim muassasalarining to'lov-kontrakt shakli mablag'lari hisobining bugungi kundagi holati hamda xorijiy tajribalar chuqur o'rganilib, tahlil qilindi. Maqolani tayyorlash jarayonida abstract mantiqiy fikrlash, induksiya, deduksiya, kuzatish, tahlil, guruhlash, taqqoslash usullaridan keng foydalanildi va taklif va tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan sanaladi.

Natijalar. Xorijdagi oliy ta'lim muassasalari ayniqsa, yevropa oliy ta'lim tizimi haqida so'z borganda boloniya jarayoni alohida muhim ro'l o'ynaydi. Boloniya jarayoni – Sorbonna va Boloniya deklaratsiyasidan boshlangan milliy hukumatlarning yevropalik talabalar va bitiruvchilarning Yevropa Ittifoqi tomonidan boshqariladigan faoliyatidan kelib chiqadigan muammolarga javob berdi. Ko'plab oliy ta'lim vazirlari institutsional o'zgarishlarni osonlashtirish uchun o'z tizimlarini yaqinlashtirish uchun quyidagi jarayonni tanladilar. Talabalar almashinuvi

va Evropada o'qish darajalari va davrlarini o'zaro tan olinishi kabi muammolarni hal qilish uchun hukumatlararo yo'lni tanlaganlar.

Bolonya deklaratsiyasining eng muhim jihatlaridan biri oliy ta'lim muassasalarining yagona "kredit tizimi"dan foydalanishga asoslanadi. Kredit yoki kredit birligi — o'quv rejasida hisobga olingan har qanday o'quv faoliyatining qiymat ko'rsatkichi hisoblanadi.

Kredit tizimi universitetlarga ham bir qator qulayliklarni taqdim etadi. Chunonchi, ma'lum bir ta'lim yo'nalishi va mutaxassisliklar kesimida o'quv jarayoni haqidagi axborotlarni aniq aks ettiruvchi o'quv rejalarning o'xshashligi hamda yagonaligini ta'minlaydi. Shuningdek, mutaxassislik darajasining tan olinishiga erishish maqsadida talabani qabul qiluvchi va jo'natuvchi oliy o'quv yurtlaridagi dasturlarning mazmunini oldindan kelishib olish imkonini beradi. Talabani ta'lim olishi bilan bog'liq barcha masalani hal etishdagi javobgarligi hamda mustaqilligi saqlanadi. Yevropa ta'lim tizimida o'quv kurslari va barcha ta'lim jarayoni kreditlarda hisoblanadi.

Evropa Komissiyasi Boloniya siyosatini yuritishda mamlakatlarni qo'llab-quvvatlashda etakchi bo'lib qolmoqda. Jarayon, manfaatdor tomonlar bilan birgalikda Erasmus+ dasturi nafaqat talabalar va xodimlarning faoliyatini oshirishga yordam beradi shuningdek, oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik - Kotibiyat va Vazirlar konferentsiyalarini ham qo'llab-quvvatlaydi. Bundan tashqari, u Evropa Ittifoqiga a'zo davlatlar va dastur va hamkor mamlakatlardagi hamkorlik loyihalarini ham qo'llab-quvvatlaydi. Erasmus+ dasturi, shuningdek, Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lmagan mamlakatlarga Boloniya islohotlarni amalga oshirishda yordam beradigan ekspertlar guruhlaridir.

Komissiya Boloniya vazirlar konferentsiyasi qarorlarini amalga oshirishni qo'llab-quvvatlaydigan Boloniya kuzatuv guruhi va uning Kengashining to'liq a'zosi hisoblanadi.

Yevropada oliy ta'lim muassasalari daromadlari xilma-xil va ko'p qirrali bo'lib u oliy ta'lim muassasalarining maqsadlari, funktsiyalari, shu jumladan tadqiqot ishlarining yo'nalishi kabi parametrlarga asoslangan holda shakllantiriladi.

Yevropadagi oliy ta'lim muassasalarining daromadlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak quyidagilar oliy ta'lim muassasalarining daromadlari deb tan olinadi:

davlat byudjeti mablag'lari;
to'lov-kontrakt mablag'lari;
uchinchi tomon va xususiy (homiylilik) mablag'lari;
boshqa daromadlar.

So'nggi yillarda to'lov-kontrakt mablag'lari va homiylikdan keladigan daromadlarini oshirish siyosatiga qaramay, "Yevropa oliy ta'lim muassasalarida hali ham asosiy davlat budjetidan moliyalashtirish salmoqli ulushni egallamoqda, budjet mablag'lari jami daromadlarning taxminan uchdan ikki qismini tashkil etmoqda" [5]. Har yili davlat budjetidan oliy ta'lim muassasalariga ish haqi, tovar va xizmatlar uchun mablag' ajratiladi. Ushbu byudjet bir martalik to'lov deb ataladi. Oliy ta'lim muassasalarining o'zlari bir martalik mablag'ni qanday sarflashlarini belgilaydilar. Ta'lim inspeksiyasi ta'lim muassasalarining moliyaviy siyosatini nazorat qiladi.

Yevropadagi oliy ta'lim muassasalarining to'lov-kontrakt mablag'lari talabalar, ularning ota-onalari va homiylari tomonidan ikki yoki uch tomonlama tuzilgan shartnomaga asosan har bir o'quv semestiri uchun to'lanadigan mablag'dir. Bunda talabalarning salohiyati va 1 semestr davomida fanlarni o'zlashtirish natijasiga qarab to'lov-kontrakt miqdori o'zgarishi

(imtiyozlar berilib kamayishi yoki yaxshi o`zlashtirmay ko`payishi) mumkin. To`lov-kontrakt miqdori odatda davlat tomonidan moliyalashtiriladigan oliy ta`lim muassasalarga qaraganda yuqori. To'lovlar bir oliy ta`lim muassasasidan boshqasiga farq qiladi. Oliy ta`lim muassasalarining kengashlari ushbu daromad qanday sarflanishini mustaqil hal qiladi.


Oliy ta`lim daromadlari asosan talabalarning to`lov-kontrakt mablag`lari hisobidan moliyalanadigan yagona yevropa davlatlari bu Buyuk Britaniya va Irlandiyadir.

Hukumat tomonidan moliyalashtirilmaydigan, to'liq xususiy muassasalar butunlay uchinchi tomon badallariga, shu jumladan talabalar to`lov-kontrakt mablag`lari hisobiga moliyalashtiriladi. Yevropadagi aksariyat Oliy ta'lim muassasalarining jami daromadlarining 10 foizni uchinchi tomon ya`ni homiylik mablag`lari tashkil qiladi. Uchinchi tomon mablag`larining asosiy komponenti milliy va xalqaro grantlar, tadqiqot loyihalari kabi maxsus tadbirlar, xizmatlar va oliy o`quv yurtidan keyingi ta'lim kabi ko`rsatiladigan xizmatlardan keladigan daromad turlarini anglatadi.

Yevropadagi oliy ta`lim muassasalari daromadlari tarkibida uchinchi tomon va xususiy mablag`lar hisobidan moliyalashtirish ahamiyati jihatidan juda farq qiladi, bunda Belgiya, Litva, Estoniya va Daniya yuqori o`rinlarni egallasa, Vengriya, Slovakiya, Polsha va Latviya quyi o`rinlarni turadi.

Yevropadagi oliy ta`lim muassasalarining boshqa daromadlariga binolarni ijaraga berish va sotish, muassasasa yo`nalishiga xos bo`lgan tijorat faoliyati bilan shug`ullanish, pullik xizmatlardan (oliy ta`lim muassasasi kirish imtixonlariga tayyorlash, faoliyatidan kelib chiqqan holda maslaxat berish, xorijiy talabalar va o`qituvchilar uchun yotoqxon bilan ta`minlash) keladigan daromadlar tushuniladi.

Yevropa iqtisodiy sharoitda oliy ta'limi tizimini mavjud imkoniyatlardan foydalangan holda maksimal foyda olish natijada davlat budjetidan moliyaviy mablag`larni ulushinin kamaytirishda samaradorlikga erishish asosiy vazifalardan biridir (1-rasm).




1-rasm. Yevropa hamda O`zbekiston oliy ta`lim muassasalarining moliyalashtirish muhitining umumiy ko`rinishi¹

¹ Tadqiqotchi tomonidan izlanishlar natijasida shakllantirildi.

Yuqoridagi rasmdan moliyalashtirish oqimlarini mablag'lar manbalari bilan bog'lanishini, asosiy daromad yo'nalishlarini ko'rishimiz mumkin. Aksariyat yevropa mamlakatlarda davlat hissasi oliy ta'lim muassasasi daromadlarining eng katta qismini tashkil qiladi. Bunda, budjetdan moliyalashtiriladigan mablag` 1 yillik faoliyatidan kelib chiqqan holda xodimlarga haq to'lash, infratuzilma va texnik xizmat ko'rsatish va boshqa bir qator xarajatlardan inobatga olgan holda shakllantiriladi. Bundan tashqari, oliy ta'lim muassasasi daromadlarining bir qismi talabalar tomonidan to'lanadigan to'lov-kontrakt mablag'lari hamda uchinchi tomon xususiy mablag'lari shu jumladan fondlar, turli kompaniya va bitiruvchilarning homiylik mablag'lari tashkil etish ko'rsatib o'tilgan.

Boshqa daromadlarning asosiy qismini esa tijoratlashtirish va pullik xizmatlardan tushgan tushumlat tashkil etadi. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining daromadlari ham deyarli yevropa oliy ta'lim muassasalari daromadlariga o'xshash bo'lib O'zbekistonda uchinchi tomon daromadlari mavjud emasligini ko'rishimiz mumkin. Bu daromadlar asosan ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirishga yo'naltiriladi.

Yevropada oliy ta'lim tizimining xarajatlari keng statistik tushuncha bo'lib, davlat va xususiy manbalar tomonidan oliy ta'limning barcha faoliyatiga (ta'lim, ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar hamda talabalar uchun yordamchi xizmatlar) sarflanadigan xarajatlarni o'z ichiga oladi. U oliy o'quv yurtlari joriy xarajatlarini (masalan, xodimlarga to'lanadigan ish haqi), shuningdek, muassasadan tashqaridagi ba'zi xarajatlarni (masalan, talabalarning darsliklarga sarflagan xarajatlarini) o'z ichiga oladi. Deyarli barcha yevropa mamlakatlarida ish haqi xarajatlari joriy xarajatlarning katta qismini tashkil qiladi, lekin ayrim oliy ta'lim muassasalarida boshqa joriy xarajatlar muhim rol o'ynashi mumkin. Jumladan, autsorsingga topshiriladigan yordamchi xizmatlar, masalan, oliy o'quv yurtlari tomonidan universitet talabalarini ovqat bilan ta'minlash uchun xususiy kompaniyalarga to'lanadigan boshqa joriy xarajatlar (2-rasm). "Yevropa oliy ta'lim muassasalarining xarajatlari hisobi murakkab va ilg'or bilim va ko'nikmalarga ijtimoiy investitsiyalar o'lchovini ta'minlaydi. Iqtisodiy bilimlar chegarasiga yaqinlashganda, bu tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda, ya'ni mavjud mahsulotlar va xizmatlarning innovatsiyasi iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhimroq bo'ladi" [9].



2-rasm Yevropa hamda O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining xarajatlarning umumiy ko'rinishi²

² Tadqiqotchi tomonidan izlanishlar natijasida shakllantirildi.

Yuqoridagi rasmdan xarajatlar oqimini ko'rib chiqadigan bo'lsak, Yevropa oliy ta'lim xarajatlarining tarkibi asosan ikki qismdan iborat ekanini ko'rishimiz mumkin. Bunda birinchi qism joriy xarajatlar deb atalib bu bir sikl semest yoki o'quv yilida sarflanadigan haqiqiy xarajatlardir. Bu kabi xarajatlarni ikkinchi sikl yoki o'quv yiliga sarflashning imkoni mavjud emas. Ikkinchi qismi bo'lsa, boshqa xarajatlar deb atalib, bu turdagi xarajatlarda bir necha siklda yoki o'quv yilida ishlatilishi mumkin bo'lgan tovar va xizmatlarga sarflangan mablag'larning hisobi yuritiladi. O'zbekistonda esa xarajatlarning hisobi 4 guruhga bo'lib olib borilishini ko'rishimiz mumkin. Bunda barcha xarajatlar bir moliya yili uchun hisobga olinadi.

Yevropadagi barcha oliy ta'lim muassasalari o'z xodimlari, jihozlari va turar joy xarajatlarini qoplash uchun ajratilgan mablag'lardan qanday foydalanishini mustaqil hal qiladilar. Oliy ta'lim nazorati ta'limni tekshirish to'g'risidagi qonun hamda oliy ta'lim va tadqiqot to'g'risidagi qonun bilan tartibga solinadi. Davlat tomonidan moliyalashtiriladigan barcha oliy ta'lim muassasalari har yili o'z moliyaviy va boshqa siyosatlarini to'g'risida hisobot tuzib, ta'lim natijalari to'g'risida hukumatni xabardor qilishi shart. Yillik hisobotlarda bajarilishi kerak bo'lgan talablar Ta'lim sohasida yillik hisobotlar bo'yicha yo'riqnomadaga asosan shakllantiriladi.

Oliy ta'lim talabalari o'qish uchun kontrakt to'lovni oliy ta'lim muassasasining o'ziga to'laydilar. Hukumat tomonidan moliyalashtiriladigan universitetlar va oliy ta'lim muassasalarida to'lovlar talabalarning ayrim toifalari uchun belgilanadi.

Har yili hukumat barcha oliy ta'lim muassasalari uchun qonun hujjatlarida belgilangan to'lovlar darajasini belgilaydi. Xususiy universitetlar va institutlar o'zlarining to'lov miqdorlarini mustaqil

belgilashga haqlidirlar. Albatta, bu qonuniy to'lovlar darajasidan past bo'lmaydi. Bu turdagi to'lovlar fuqarolik talabiga javob berish, talabalarni moliyalashtirish huquqini beruvchi yashash ruxsatiga ega bo'lishlari, belgilangan fan dasturlarini o'zlashtira olmay, qo'shimcha kurslarda o'qish kabilardan shakllanadi.

Yevropa mamlakatlarida xususan, Latviada o'quv jarayoni biznes reja semester yoki bir o'quv yili uchun tuziladi. Hisob yuritish tizimi ham bir o'quv yili, semestri hattoki bazi hollarda bir o'quv semestridagi bir o'quv yo'nalishlari uchun ham shakllantiriladi. Bunda o'z-o'zidan daromad va xarajatlar hisobi ham shunga mos muddatlarda yuritiladi. Hisob va hisobot ishlari bir o'quv yili uchun hisobga olinganidan keyin moliyaviy natijalar ham shunga moslashtiriladi. Oliy ta'lim talabalari to'lov-kontrakt mablag'larini belgilangan to'lov muddatlariga asosan oldindan to'laydilar. Bu to'lov-kontrakt summalari tan olinayotgan majburiyatlar hamda kechiktirilgan daromad sifatida o'quv jarayoni davomida tan olib boriladi.

Xarajatlar ham shunga moslashtirilib o'quv yili uchun shakllantiriladi. Buning qulay tomoni moliyaviy natijalar hisobi ham o'quv yili uchun shakllanadi. Bunda hisoblangan ijobiy yoki salbiy moliyaviy natija faqat shu o'quv yili uchun tegishli hisoblanadi. Bu hisob yuritish, hisobotlarni taqdim etish hamda taqdim etilayotgan axborot ma'lumotlarni to'g'ri yuritilayotganligini hamda ishonchligini ta'minlaydi. Latvia oliy ta'lim muassasalari hisob yuritilishining yana bir eng muhim jihati tuzilayotgan biznes reja xarajatlar tarkibi asosan joriy xarajatlar o'quv jarayoni ya'ni bir o'quv yili uchun tuzilishidir. Biznes rejada ko'rsatib o'tilgan barcha xarajatlar bir o'quv yili davomida xarajat sifatida tan olib boriladi. Biznes reja-bir o'quv yiliga tuziladi, daromad-tan olinayotgan majburiyatlar va

kechiktirilgan daromadlar sifatida, bir o'quv yili davomida barcha sarflar-xarajatlar sifatida tan olib boriladi. Daromad va xarajatlarning farqi ya'ni, moliyaviy natijalar hisobi ham to'g'ri hamda ishonchli tarzda bir moliya yili uchun shakllantiriladi.

Munozara. Mamlakatimizda har yili oliy ta'lim muassasalari tomonidan o'qitishning kontrakt shaklidan tushadigan mablag'lar bo'yicha kalendar yilga daromadlar va xarajatlar smetasi ishlab chiqilib tasdiqlanadi hamda bo'ysunuvi bo'yicha tegishli vazirlik yoki idoraga ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etiladi. Oliy ta'lim muassasalari tomonidan o'qitishning kontrakt shaklidan tushgan mablag'lar bo'yicha daromadlar va xarajatlarning hisobotlarini tuzish, tasdiqlash va taqdim qilish ham kalendar yiliga shakllantiriladi. Bundan tashqari moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta'lim muassasalari kuzatuv kengashlari o'rta muddat uchun biznes-rejasi hamda daromadlar va xarajatlar parametrlarini shakllantiradilar. Biznes rejani tuzishda, hisob va hisobotlarni yuritish jarayonida, daromad va xarajatlarni tan olinishida hamda moliyaviy natijalarni aniqlashda o'quv yili bilan kalendar yili o'rtasidagi tafovut o'z navbatida oliy ta'lim buhgalteriya xizmatida bir qator kamchiliklarga hamda taqdim etilayotgan axborot ma'lumotlarni ishonchsizligiga olib keladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, to'lov kontrakt summalarining o'quv yili bilan bog'liqlikda asosiy daromad manbai sifatida qaralib ular bilan bog'liq xarajatlar ham o'quv yili bilan uzviylikda amalga oshirilishini ko'rishimiz mumkin. Bunda o'z navbatida, to'lov kontrakt mablag'lari bilan bog'liq daromadlar va xarajatlar o'quv yili davomida tan olinadi hamda hisobda aks ettirib boriladi. Xorijiy tajribaga ko'ra, kredit-modul tizimida o'quv jarayoni har semestrda 2 - 4 tagacha

moduldan iborat bo'lib, modulda jamlangan fanlar osondan murakkablik sari, nazariy-uslubiy fanlardan amaliy fanlarga qarab hamda mantiqiy jihatdan bir-birini o'zaro uzviy to'ldirish prinsipi asosida shakllantiriladi. Kredit texnologiyasi ta'lim oluvchilarga ishchi o'quv rejaga kiritilgan tanlov fanlarini tanlash, bu orqali individual o'quv rejasini shakllantirishda bevosita ishtirok etish huquqini beradi.

Yevropa oliy ta'lim tizimi hisob yuritish jarayonlarini o'rganib, to'lov-kontrakt hisobi va hisobotlarini to'g'ri shakllantirish yuzasidan quyidagi takliflarni joriy etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

1. Kuzatuv kengashlari tomonidan tuziladigan biznes rejani har bir o'quv yiliga mos holda shakllantirish maqsadga muvofiq. O'quv yili uchun tuzib tasdiqlangan biznes reja asosida shu muddat uchun daromadlar va xarajatlar parametrlari shakllantiriladi. O'z-o'zidan daromadlar va xarajatlarning hisobinin olib borish natijasida moliyaviy natijalar ham shu muddat uchun shakllanadi. Oliy ta'lim muassasalari faoliyati o'quv jarayoni, o'quv yili bilan bog'liq bo'lganligi uchun moliya yiliga tasdiqlangan biznes rejaga qaraganda, o'quv yiliga tasdiqlangan biznes rejaning bajarilishida, buhgalteriya hisobini yuritilishi va hisobotlarini tuzishda bir qator aniqliklarga olib keladi.

2. To'lanayotgan to'lov-kontrakt summalarini o'quv yili jarayoni davomida majburiyatlarni tan olish hamda kechiktirilgan daromadlar sifatida tan olish tartibini belgilash zarur. To'lanayotgan to'lov-kontrakt summalari belgilangan muddat uchun to'lanmoqda (1 semestr yoki bir o'quv yili) shunday ekan to'langan mablag'ni ham shu tartibda oylar kesimida majburiyatni tan olib borish kerak. Belgilangan muddat uchun to'lov-kontrakt summasi oldindan to'lov sifatida amalga oshirilishini hisobga olsak, to'lanayotgan



muddat hali tugamagan bo`ladi buni bir yo`la daromadga olib borish bir qator muammolarga olib keladi.

3. Shakllantirilayotgan daromadlar va xarajatlar smetasini o`quv yiliga tuzib, tasdiqlash maqsadga muvofiq. Daromadlar talabalar tomonida bir o`quv yili uchun to`lanayotgan bo`lsa o`-o`zidan daromadlar va xarajatlar smetasini ham shu o`quv yili uchun tuzish zarur. Daromadlar xarajatlardan kelib chiqqan holda shakllantirilar ekan, bu o`quv yili uchun tasdiqlangan xarajatlar kelgusi o`quv yili uchun o`zgarishi (ko`payishi yoki kamayishi) mumkin. Bu degani daromadlarimiz ham shunga mos ravishda kelgusi o`quv yili uchun o`zgaradi.

Moliya yili uchun tuzib, tasdiqlangan daromadlar va xarajatlar smetasi ikki o`quv yilini o`z ichiga olganligi sababli buhgalteriya hisob va hisobotlarning noaniqliklar yuzaga keladi.

4. Moliyaviy natijalar hisobini ham o`quv yiliga moslashtirish. Moliyaviy natijalar bu bizning belgilangan muddat davomidagi foyda yoki zararimiz. Oliy ta`lim muassasalarining faoliyati o`quv yili bilan bog`liqligini yuqorida takidlab o`tdik. Shunday ekan o`quv yiliga moslashtirib hisob axborot ma`lumotlarini yig`ish va moliyaviy natijalar to`g`risidagi hisobotini tuzish shu o`quv yili davomidagi aniq foyda va zararni shakllantirishga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo`ljallangan Yangi O`zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"gi 60-Farmoni. 2022 yil 28 yanvar.
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 йил 24 декабрдаги "Davlat oliy ta`lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to`g`risida"gi 61-sonli Qarori 2021 yil 24 dekabr.
3. A.A.Ostonokulov byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag`lari hisobi va hisoboti metodologiyasini takomillashtirish. Monografiya. – T.: «VNESHINVESTPROM», 2021. -208 b.
4. A.A.Ostonokulov. Improvement of methodology for accounting of extra-budgetary resources of public educational and medical institutions. E3S Web Conf. Volume 296, 2021. 1st International Conference on Environmental Sustainability Management and Green Technologies (ESMGT 2021).
5. European Tertiary Education Register ETER №2/2019 y. from the analytical database.
6. J.Yu.Qurbonov "Oliy ta`lim muassasalarida o`qitishning to`lov-kontrakt shaklidan tushgan tushumlar hisobi va uni takomillashtirish masalalari " "Inovatsion texnologiyalar" jurnali 2021 yil №4 dekabr.
7. Rita Kasa Juggling the Costs of Higher Education Abroad: Voices of International Students from Latvia "Reimagining mobility in higher education" DOI:10.1007/978-3-030-93865-9_6
8. S.Marginson "High Participation Systems of Higher Education". The journal of higher education. 2016 3/1
9. Vandenbussche, Aghion va Meghir, 2006; Aghion, Boustan va Hoxby, 2009



10. А.И.Зотова Бухгалтерский учет высших образовательных учреждениях: На примере вузов Центрасоюза РФ. тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 08.00.12, -RF.:2000.-Стр.239.
11. Н.Н.Парадоцкая Особенности управленского учета в организациях образования. Бухгалтерский учет в бюджетных и некоммерческих организациях 19 (355)-2014
12. Н.Р.Кельчевская Оценка экономической устойчивости государственного вуза. "Университетское управление: практика и анализ" научный журнал 2002
13. <http://www.interfinance.uz> ("Xalqaro moliya va hisob" ilmiy electron jurnali sayti)
14. <http://op.europa.eu> (Publication office of the european union)
15. <http://education.ec.europa.eu> (European education area)
16. <https://stat.gov.lv> (Official statistics portal of Latvia)
17. <https://stat.uz/> ("O`zbekiston davlat statistika qo`mitasi sayti)